



KOMPETENTLI YONDASHUV TALABALARNING MUSTAQIL ISHLASH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRUVCHI YONDASHUV SIFATIDA

To'rayeva Gavxarbonu Tolibjonovna

Alfraganus University, "Pedagogika" kafedrası, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Email: farhodjon9618@mail.ru

Tel: +998 90-984-96-18

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17661300>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-noyabr 2025 yil
Ma'qullandi: 15-noyabr 2025 yil
Nashr qilindi: 20-noyabr 2025 yil

KEYWORDS

*Kompetent, mustaqil ishlash,
pedagogika, didaktik,
psixologik-pedagogik,
innovatsion faoliyat, axborot,
ta'lim.*

ABSTRACT


Kompetentli yondashuv asosida talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari didaktik tashkiliy - boshqaruvli, psixologik-pedagogik va madaniy yondashuvlar, mustaqil faoliyatni tashkil etish, innovatsion faoliyat yurituvchi texnologiyalarni axborot ta'lim muhitida ishlash bosqichlarni aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan..

Mustaqil ishlash faoliyatini – talabalarni o'z kasbiga qiziqtiruvchi, bilim doiralarini kengaytiruvchi, ularda hozirjavoblik xususiyatlarini tarbiyalovchi, faollashtiruvchi va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi kabi didaktik funksiyalarni bajaradi. Tajribalarda ta'kidlanganidek, agar mashg'ulot odatdagi faqat tinglab o'tirishga asoslangan usulda o'tkazilganda, talabalar axborotning ko'pi bilan 15-20 foizini o'zlashtirgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanilganda esa bu ko'rsatkich 85–90 foizgacha oshganligi tasdiqlangan. Noan'anaviy ta'limning samaradorligi yana shundan iboratki, uning qatnashchilari yaxlit tizimli bilimga ega bo'ladi va mustaqil – ijodiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanishi negizida bo'lajak kasbiy faoliyatga oid boshlang'ich ko'nikmalar shakllantirilib, o'quv-tarbiyaviy jarayonni amaliyot bilan bevosita bog'lab olib borishni ta'minlaydi. Shuning uchun ham u rivojlantiruvchi o'qitishning yuqori samarali usullaridan biri bo'lib hi-soblanadi. Talabalarning darsdan tashqari mustaqil ishlash faoliyatini tashkil etishda ham o'qituvchilarning tashabbuskorligi, mahorati muhim hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan dasturiy ta'lim va dasturiy ta'minot vositalari, innovatsion texnologiyalar bugungi kun ta'limining istiqboli hisoblanadi. Shunday ekan, innovatsion ta'lim muhitini yaratish, o'quv jarayonlarini raqamlashtirish bilan bog'liqdir[1,2].

Talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini tashkil qilish, fanlarga tayyorlash muammolari bo'yicha ilmiy asarlari va mustaqil ishlash faoliyatini tashkil etishga bo'lgan pedagogik yondashuvlarning nazariy asosi, uning hozirgi holati o'rganildi, o'rganilayotgan muammo bo'yicha mahalliy va xorijiy ilmiy, pedagogik, metodik adabiyotlar va me'yoriy hujjatlarni o'rganish va tahlil qilish amalga oshirildi, maqsad va vazifalar aniqlandi.

Mustaqil ishlash faoliyati bu - talabaning dars va darsdan tashqari faoliyatlarida o'z-o'zini rivojlantirish, kasbiy ko'nikmalarni egallash, mustaqil ishlarni kreativ yondashgan holda

bajarishga undovchi bilimlar to'plash, amaliy ko'nikmalar hosil qilish va tanqidiy fikrlash jarayonida amalga oshiriladigan faoliyatdir[3,4].



1-rasm. Talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini tashkil etish modeli

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki ko'pgina olimlar "Mustaqil ishlash faoliyatini" haqida qisman o'z fikr va mulohazalarini bayyon etganlar. Ya'ni ba'zi olimlar "Mustaqil ish" va "Tanqidiy fikrlash" haqida ba'zilar "Kasbiy" va "Amaliy" ko'nikmalar haqida o'z fikr va mulohazalarini bayon etganlar lekin hech qaysi olim "Mustaqil ishlash faoliyatini"ni to'liq o'rganmagan.

Musqaqil ishlash faoliyati bo'yicha kompleks yondashuvlarni amalga oshirish - dasturiy ta'minotni yaratish orqali amalga oshiriladi.

Talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini tashkil etishda: "**Mustaqil ish**" asosiy o'rin tutadi. "Mustaqil ish" tushunchasining turli ifodalarini qo'rib chiqar ekanmiz, pedagogik qomusdada tahsil oluvchilarning mustaqil ishi "o'qituvchining bevosita ishtirokisiz amalga oshiriladigan o'quv faoliyatining ko'p turli-tuman xillarini" nazar tutishini aytishimiz mumkin. Mustaqil ishning yuqorida keltirilgan talqinlarda aynan "tahsil oluvchining vazifa topshiriqlarni o'qituvchining bevosita ishtirokisiz bajarishi" uni o'qitishning bir shakli sifatida tavsiflaydigan asosiy belgi bo'lib xizmat qiladi. Bu belgi tufayli mustaqil ish o'quv faoliyatining boshqa tashkiliy shakllari orasida ajralib turadi[5,6,7].

Shuningdek talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini tashkil etishda **tanqidiy fikrlash** ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tanqidiy fikrlash - fikrlashning alohida turi bo'lib, faktlarni tahlil qilish orqali xulosalar hosil qiladi. Ushbu konsepsiya murakkab va turli xil ta'riflarga ega, jumladan, [ratsionallik](#), [skeptitsizm](#), xolis tahlil va faktlarni tekshirish. Tanqidiy fikrlash bu - o'z-o'zini boshqaradigan, o'zini o'zi tarbiyalaydigan, o'zini o'zi nazorat qiladigan va o'zini o'zi to'g'iraydigan fikrlash shaklidir. Uning zaruriy sharti ongni takomillashtirishning qat'iy me'yorlariga rozi bo'lish va ularni hushyorlik bilan qo'llashdir. Tanqidiy fikrlash samarali muloqot va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini egallashni, shuningdek, tabiatimizga xos [egosentrizm](#) va sotsosentrizmni yengib o'tishni talab qiladi.

Talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini tashkil etishda talabalarda **kasbiy va amaliy** ko'nikmalarni egallashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bilamizki, hozirgi kunda xalqaro rivojlanish tizimida ta'lim asrimizning barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, Koreya Respublikasida o'tkazilgan xalqaro ta'lim forumida 2030-yilgacha belgilangan konsepsiyada "butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" dolzarbligi qayd etilgan. Bu esa, o'z navbatida, talabalarda kasbiy ko'nikmalarini egallash va rivojlantirish, innovatsion yondashuv asosida talabalarni kasbiy va amaliy tayyorlashni tashkil etish, mustaqil fikrlash va ijodiy tafakkurni, kreativlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalardan foydalanib, bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlash tizimining o'quv-metodik ta'minotini yaratish imkoniyatini kengaytirdi. Dunyo ta'lim tizimini axborotlashtirish sharoitida bo'lajak kadrlarni kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishning o'quv-metodik ta'minotini xalqaro talablar asosida yangilab borish, talabalar kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishning psixologik, pedagogik omillarini aniqlashtirish bo'yicha ilmiytadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu vazifalarni hal qilishda kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishning metodik resurslarini ishlab chiqish va ularni innovatsion yondashuv asosida takomillashtirish, pedagogik shart-sharoitlar yaratish va o'qitishning sifat va samaradorligini oshirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash dolzarb hisoblanadi.

Talabalarning mustaqil ishlari ta'lim jarayonining shunchaki bir muhim shakli emas, u bu jarayonning asosiga aylanishi shart. Bunda tahsil oluvchilarning mustaqil bilish faoliyatini rag'balnatirish jihatdan ta'minlash masalalari alohida e'tibor qaratishni talab qiladi. Ta'limning shubhasiz ravishda harakatga soluvchi kuchi hisoblangan o'quv motivatsiyasini shakllantirish e'tiborga olinadi[7,8].

Kompetentlik atamasi lotincha "competo" so'zidan olingan bo'lib, "erishayapman, munosibman" degan ma'noni anglatadi hamda ma'lum sohadan xabardorligini, bilishini va tajribaga ega ekanligini bildiradi (O'zME, 2002).

Kompetentli yondashuv asosida talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini olib borishga, mustaqil rivojlanishga va innovatsion faoliyatga qodir mutaxassisning ijodiy shaxsini shakllantirish oliy ta'limning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu muammoni yechish faqat o'qitish paradigmasidan ta'lim paradigmasiga o'tish orqali hal qilsa bo'ladi. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan oliy ta'limning islohoti shu bilan bog'liq.

Talabani bilimlarini nafaol iste'molchidan, ularning mustaqil ishlarini rejaldashtirishga va bashorat qila olishga qodir, tashabbus ko'rsata oladigan, muammoni ifodalay oladigan, uni yechish yo'llarini tahlil qila oladigan, optimal natija oladigan va uning to'g'riligini isbot qila oladigan faol yaratuvchisiga aylantirish zarur.

Oliy ta'lim tizimiga kompetentli yondashuvning joriy etilishi ta'lim maqsadi, mazmuni, o'qitish shakli, o'qitish usullari, pedagogik texnologiyalari, nazorat usullarini hamda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi munosabatlarida jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi. Jumladan, «bilimli» yondashuvda ta'lim maqsadi ta'lim oluvchidan har bir fandan alohida bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltiradigan bo'lsa, «kompetentli» yondashuvda ta'lim oluvchida fanlar bo'yicha integrallashgan bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Shunga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etishning mavjud shakllari bo'lgan ma'ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarini mazmun jihatidan o'zgartirish nazarda tutiladi. Ma'ruza darslarining muammoli ta'lim shaklida, seminar darslarni kreativ tafakkurni va amaliy mashg'ulotlarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini

shakllantirishga qaratilgan bo'lishligi maqsadga muvofiq. Mustaqil ishlarni tashkil etishda individuallikka ahamiyat qaratish va ular hajmi jihatidan ko'proqni tashkil qilishi kerak.

Bundan keyin esa bilimlarga asoslangan yondashuvdan kompetentli yondashuvga bosqichma-bosqich o'tish zarur bo'ladi va bu jarayonda talabalarning algoritmlarni bajarishlari, bilimlarni, malakalar va ko'nikmalarni "majburlash bilan" o'zlashtirishlari, talabaning mustaqil ishining butun jarayonini nazorat qilish asta sekin talaba uchun zarur bilimlar va ko'nikmalarni musaqil o'zlashtirish, o'z bilimlarini mustaqil nazorat qilish va mustaqil baholash, o'qituvchi tomonidan esa talabaning mustaqil faoliyatining bevosita natijasini nazorat qilish bilan almashadi (qilishga o'zgaradi). Bu bilan, talabaning OTMdagi tahsilining oxirgi qayta mustaqil ishni tashkil etishda kompetentli yondashuv ning ustuvor bo'lishi muqarrar. Bu talabada unga zarur bo'lganda kasbiy bilimlarni va tegishlifunksional ko'nikmalarni mustaqil o'zlashtirish imkonini beradigan sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi[7,8].

Shunday qilib, bugungi kunda kompetentli yondashuv asosida talabalarning mustaqil ishni tashkil etish oliy ta'lim jarayonini tashkil qilish tizimida munosib o'rinni egallaydi.

Talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini tashkil etish ta'limning zamonaviy bosqichining eng dolzarb muammolaridan biridir. Bu o'qituvchining shaxsiyatini kasbiy shakllantirish uchun zarur bo'lgan kognitiv mustaqillikni shakllantirish uchun asos bo'lgan yangi bilimlarni muntazam ravishda olish bilan bog'liq. Ba'zi tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish muammosini hal qilishga yetarlicha e'tibor berilmaydi. Uning murakkabligi va ko'p omilliligi shuni ko'rsatadiki, ushbu muammoni an'anaviy ta'lim shakllaridan foydalanish orqali hal qilish juda qiyin. Shunday qilib, yangi bilimlarni mustaqil ravishda olishni aktuallashtirish zamonaviy ta'lim tizimida qarama - qarshilik mavjudligi bilan bog'liq bo'lib, u bir tomondan bilimlarni tez sur'atlar bilan olish zarurligidan iborat bo'lib, o'quv sub'ekti tomonidan bilimlarni o'zlashtirish va an'anaviy o'qitish usullari bilan yangi bilimlarni olishning cheklangan imkoniyatlari bilan bog'liq.

Bizning fikrimizcha, oliy ta'lim muassasasida talabalarning asosiy ta'lim dasturini o'zlashtirish davomida mustaqil ishlarni tashkil etish bilimlarga asoslangan va kompetentlikka asoslangan yondashuvlarni integrasiya qilinishi sharoitlarida amalga oshirilishi zarur.

Bundan keyin esa bilimlarga asoslangan yondashuvdan kompetentli yondashuvga bosqichma-bosqich o'tish zarur bo'ladi va bu jarayonda talabalarning algoritmlarni bajarishlari, bilimlarni, malakalar va ko'nikmalarni "majburlash bilan" o'zlashtirishlari, talabaning mustaqil ishining butun jarayonini nazorat qilish asta sekin talaba uchun zarur bilimlar va ko'nikmalarni musaqil o'zlashtirish, o'z bilimlarini mustaqil nazorat qilish va mustaqil baholash, o'qituvchi tomonidan esa talabaning mustaqil faoliyatining bevosita natijasini nazorat qilish bilan almashadi (qilishga o'zgaradi). Bu bilan, talabaning OTMdagi tahsilining oxirgi qaytamustaqil ishni tashkil etishda kompetentli yondashuv ning ustuvor bo'lishi muqarrar. Bu talabada unga zarur bo'lganda kasbiy bilimlarni va tegishlifunksional ko'nikmalarni mustaqil o'zlashtirish imkonini beradigan sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi[6].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, talabalarni mustaqil ta'limga jalb qilish, faol mustaqil bilim olishga o'rgatishning asosiy maqsadi – ularni nafaqat talabalik davrida balki, keyingi kasbiy faoliyatida ham zamon talabidan kelib chiqib, yangi bilimlarni o'zlashtirish orqali bilimlarini oshirib, yangilab borishini ta'minlan bilan mustaqil fikrlashga o'rgatish, ijodiy

tafakkurini rivojlantirish orqali, keng axborot makonida kerakli ma'lumotlarni saralash qobiliyati natijasida to'g'ri xulosalar chiqara olish imkoniyatlarini oshirish va natijada jamiyatga saviyali insonlarni hamda sifatli kadrlarni yetishtirib berish bilan mamlakatimiz taraqqiyotiga, xalqimiz farovonligiga muhim hissa qo'shishdan iborat

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To'raeva. G.T. "Kompetentli yondashuv asosida matematikaga fanini o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil ishini tashkil etish modeli". //Boshlang'ich ta'limda integratsiyaviy-innovatsion yondashuvlar. Toshkent davlat pedagogika universiteti, respublika ilmiy-amaliy anjuman. Toshkent 2019y. 5-may.71b.
2. To'raeva. G.T. "Matematika fanini o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil ishini tashkil etishning o'quv-pedagogik ta'minoti".//Jismoniy madaniyat va boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirish istiqbollari. Toshkent davlat pedagogika universiteti, respublika ilmiy-amaliy anjuman. Toshkent 2020y. 531-533b.
3. To'raeva. G.T. "Kompetentli yondashuv asosida matematikaga fanini o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil ishini tashkil etish modeli". //Boshlang'ich ta'limni tashkil etishning sifat va samaradorligini oshirish masalalari . Toshkent davlat pedagogika universiteti, respublika ilmiy-amaliy anjuman. Toshkent 2022y. 190-193b.
4. To'raeva. G.T. "Kompetentli yondashuv asosida talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini takomillashtirish". //Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari 2023/ 4-son.. Toshkent 2023y.357-364b.
5. To'raeva. G.T. "Bo'lajak pedagog talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini takomillashtirish".//Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari 2023/5-son.. Toshkent 2023y. 451-457b.
6. To'raeva. G.T. "Bo'lajak pedagog talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini takomillashtirish". //Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari 2023/7-son.. Toshkent 2023y. 231-235b.
7. Turaeva Gavkharbonu Talibjonovna.- "Organization of independent work of students in the process of teaching mathematics on the competence-based approach".// Science and innovation international scientific journal volume 2 issue 8 august 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 | scientists.uz. 167-171pp.
8. Turaeva Gavkharbonu Talibjonovna.- "Methodology for developing independent creative thinking of students".// Science and innovation international scientific journal volume 2 issue 8 august 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 | scientists.uz. 172-174pp.